

**70840105- Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi magistratura mutaxassisligi fanlar katalogi**

T/r	Fanning kodl*	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kredit miqdori	Semestr
<b>Majburiy fanlar</b>					
1.01	SRT1104	Sohada raqamli texnologiyalar	<p>Raqamlashtirish jarayonida me'yoriy hujjatlardan foydalana olish, sohani raqamlashtirish sharoitida ma'lumotlarni qayta ishlashning asosiy usullari va vositalarini o'zlashtirish, intellektual boshqaruv tizimlarida ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish.</p> <p>Bulutli texnologiyalardan foydalana olish, buyumlar internet texnologiyasining mohiyati va ahamiyatini tushunish, telemeditsina, telekonferensiya va videoaloqa bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish, raqamlashtirish sharoitida axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish.</p>	4	1
1.02	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	<p>Ilmiy ijod qilish yo'llari va mexanizmlarini, innovasion g'oyalar va loyihalarni; ilmiy tadqiqot qonuniyatlari va usullarini bilish, uni tashkil etish, amalga oshirish; mavzu tanlash, ilmiy axborot, fakt va ma'lumotlar bilan ishlash; ilmiy ish va dissertatsiyani rasmiylashtirish ko'nikmasiga ega bo'lish; tadqiqot samaradorligini oshirish; ilmiy matn yozish, olingan natijalarni amaliyotga tatbiq qilish malakasiga ega bo'lishi lozim.</p>	4	1
1.03	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	<p>Maxsus fanlarni o'qitishda professor-o'qituvchining vazifalarini; talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishni bilish; maxsus fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi; maxsus fanlarning didaktik ta'minoti va ularni o'qitish jarayonida qo'llashni; o'qitishning innovatsion, interfaol ta'lim texnologiyalari va kredit-modul tizimini bilish, ularni qo'llash malakalariga ega bo'lishi lozim.</p>	4	1
1.04	PO'EM1108	Patomorfologik o'zgarishlarning elektron mikroskopiya	<p>Hayvonlar va parrandalar kasalliklarida uchraydigan juda ertachi rivojlanuvchi patomorfologik o'zgarishlarni, kasalliklarning patogenezi, sabablari, o'smalarning morfogenezi, biokimyoviy xususiyatlari, tashxisi va qiyosiy tashxisini elektron mikroskopiya usulida aniqlash, kasalliklarni tushuntiruvchi oqimlarning nazariy asoslarini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish.</p>	8	1,2

1.05	HEM1108	Hayvonlarning evolyutsion morfologiyasi	Hayvonlarning ixtiyoriy harakat organlari, teri qoplama, ichki organlari, yurak-qon tomirlar, limfa, asab tizimi organlarining kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanish xususiyatlariga ko'ra qiyosiy morfologiyasini farqlay olish. Hayvonlar va parrandalar organlari tizimlarining integrativ filogenetik qonuniyatlari va ularga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda ilmiy-pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish.	8	1,2
1.06	VO1206	Veterinariya onkologiyasi	O'smalarning kelib chiqishi, rivojlanishi, klassifikatsiyasi, differentsiatsiya qilishning zamonaviy usullarini bilish. Veterinariya onkologiyasining hozirgi zamon ilmiy yo'nalishlariga baho berish, onkologik jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, ularning nazariy asoslarini farqlay olish, xavfli va xavfsiz o'smalarga qiyosiy tashxis qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lish.	6	2
1.07	FSNA1206	Funksional sitomorfologiya asoslari	Hayvonlar organlari to'qimalaridan turli usullarni qo'llagan holda gistopreparatlar tayyorlash hamda ularni tahlil qila olish. To'qima va hujayralarning funksional holati bilan bog'liq ultra tuzilmaviy xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ilmiy-pedagogik faoliyatida qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish.	6	2
1.08	PTU1306	Patomorfologik tekshirish usullari	Elastik tolalar, muskul va boshqa to'qimalardagi amiloid, gialin va shilimshiq massalarning miqdor va sifatiiy ko'rsatkichlarini aniqlay olish. Hayvonlar kasalliklariga patomorfologik tashxis qo'yishda patologik, biopsik, autopsik materiallarda DNK, RNK, oqsillar, aminokislotalar, vitaminlar va fermentlarning faolligini aniqlash usullarini qo'llash hamda ilmiy tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish.	6	3
<b>Tanlov fanlari</b>					
2.01	ZMA2104	Zamonaviy menejment asoslari	Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish, sohada foydalaniladigan hujjatlarni rasmiylashtirish, aylanishini tashkil etish va ulardagi axborotlardan kasbiy faoliyatda hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish, strategik va operasion boshqaruv vazifalarini bilishi, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilish va boshqarish, boshqaruvning zamonaviy texnologiyalari qo'llash, loyihalarni boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish malakalariga ega bo'lish.	4	1
	LA2104	Logistika asoslari	Logistik tizimlar harakatini strategik rejalashtirish, ombor xo'jaliklarini tashkil qilish, logistik markazlar va ularning samaradorligi		

				baholash, moddiy va nomoddiy xom ashyo materiallarni korxonalarga yetkazib berish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish malakalariga ega bo'lish		
2.02	KB2204	Klinik biokimyo		Hayvonlar organizmida kechayotgan hayotiy jarayonlarni, bu jarayonlarning hayvonlar turiga, jinsiga, zotiga, yashash sharoitiga, mahsuldorligiga va boshqa omillarga qarab, biokimyoviy tarkibi, ularda kechadigan biokimyoviy jarayonlarning borishi, asosiy moddalarning qanday o'zgarishini bilish, ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasi va malaksini hosil qilish.	4	2
	VBA2204	Vitaminlarning biokimyoviy asoslari		Har xil turga mansub bo'lgan sog'lom, kasal hayvonlar va parrandalar organizmida kechayotgan biokimyoviy jarayonlarning turli omillarga qarab qanday o'zgarishini tushuntirish. Hayvonlar organizmida kechayotgan hayotiy jarayonlarga, ularning asoslari va qonuniyatlariga, biokimyoviy ko'rsatkichlarni bilish va ularni aniqlashga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini tahlil qilish.		
	VIITU2306	Veterinariyada innovatsion ilmiy-tadqiqot usullari		Veterinariya sohasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish tartibi, ilmiy mavzuni tanlash va uning ahamiyati, ilmiy tadqiqot metodlari, eksperimental tadqiqotlar o'tkazish tartibi va qoidalari, olingan natijalarni rasmiylashtirish va tahlil qilish, statistik biometrik ishlov berish, maqolalar yozish tartibi, magistrlik dissertatsiyasini yozish tartibi va nizomlarini bilish kabi bilimlarni shakllantirishdan iborat	6	3
2.03	TNBIB2306	Tadqiqot natijalariga biometrik ishlov berish		Ilmiy tadqiqotda natijalarni qayt etishni o'rganish, malumotlarni guruhlash ko'nikmalariga ega bo'lish, ilmiy tadqiqotda ma'lumotlarni qayta ishlash usullari va vositalarini o'zlashtirish, tadqiqotni tahlil qilish va natija olishda ishlatiladigan gipoteza, mezonlar va qonunlariga rioya qilish.		

**840 000-Veterinariya ta'lim sohasi**  
**Muvofiqlashtiruvchi soha kengashi raisi, professor**



**X.B. Yunusov**